

MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK MUMTOZ MUSIQA ASARLARINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Qudratova Elnoza Ismatillayevna

JDPU Musiqiy ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarining 5-7 sinflarida o'zbek mumtoz musiqasini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan. Unda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, mumtoz musiqaning murakkabligi, o'qituvchining mahorati va jonli ijroning ahamiyati kabi omillar tahlil qilinadi. Muallif mumtoz asarlarni tanlash, tahlil qilish, cholg'u asboblari bilan solishtirish hamda o'quvchilarning musiqiy baho berish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib beradi. Maqola musiqa o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: xalq musiqa merosi, milliy g'oya, mafkura, ta'lim, tarbiya, shaxs ma'naviy kamolot, umumta'lim maktablari, pedagogik talab va mezon.

Резюме: Данная статья посвящена методике преподавания узбекской классической музыки в 5-7 классах общеобразовательных школ. В ней анализируются такие факторы, как возрастные особенности учащихся, сложность классической музыки, мастерство учителя и важность живого исполнения. Автор раскрывает пути отбора, анализа классических произведений, сравнения их с музыкальными инструментами, а также развития у учащихся навыков музыкальной оценки. Статья может служить практическим руководством для учителей музыки.

Ключевые слова: народное музыкальное наследие, национальная идея, идеология, воспитание, воспитание, духовная зрелость личности, общеобразовательная школа, педагогические требования и критерии.

Annotation: This article is dedicated to the methodology of teaching Uzbek classical music in grades 5-7 of general education schools. It analyzes factors such as the age characteristics of students, the complexity of classical music, the teacher's skill, and the importance of live performance. The author reveals ways to select and analyze classical works, compare them with musical instruments, and develop students' musical evaluation skills. This article can serve as a practical guide for music teachers.

Keywords: folk music heritage, national idea, ideology, education, training, personal spiritual maturity, comprehensive schools, pedagogical requirements and criteria.

Yosh avlodni hayot va san'at go'zalliklarini teran idrok etish ko'nikmalarini, estetik tuyg'u va badiiy didalarini o'stirishda adabiyot, madaniyat va san'atning barcha tur va yo'nalishlari qatorida musiqa san'ati katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham pedagogika


fani, ta'lim nazariyasi va amaliyotiga ulkan hissa qo'shgan pedagog olimlar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida estetik mazmun va mohiyat kasb etuvchi fan, adabiyot, san'at turlariga alohida e'tibor berishgan. Ular estetik tarbiyaga daxldor ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlar shaxsning barkamol rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazishni hayotiy misollar va ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra asoslaganlar.

Shuni e'tirof etish o'rinliki, o'zbek xalqining boy va betakror musiqiy merosi tarkibida xalq qo'shiqlari, dostonchilik, mumtoz (maqom) kuy va ashulalari salmoqli o'rin tutadi. Xalq qo'shiqlari ko'proq xalq og'zaki ijodi va turli davrlarda yashab ijod qilgan shoirlar she'rlariga bastalangan, mumtoz ashulalar esa asosan mumtoz she'riyatga mansub g'azallarga bastalanganligi bilan farqlanadi. Ular mazmunidagi ma'naviy va estetik g'oyalar badiiy-emotsional ta'sirchanligi bilan kishi qalbida oliyjanob his-tuyg'ular uyg'otadi, ularni go'zallik mayli bilan yashashga undaydi. Zero, ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik, madaniy-ma'rifiy tarbiya zamirida umuminsoniy va milliy qadryatlar uyg'unligi orqali kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodni har jihatdan barkamol, ya'ni ma'naviyati yuksak, milliy ongi, tafakkuri, madaniyati, dunyoqarashi va badiiy didini shakllantirishga erishish maqsadi yotadi.

Shuning uchun ham milliy-musiqiy ta'limni shakllantirishning ilk bosqichlaridanoq ta'limning barcha bo'g'inlarida xalq musiqa merosiga ustuvor ahamiyat berildi, darslik va dasturlarda zamonaviy kompozitorlik, qardosh, chet el asarlari bilan birga o'zbek folklari va dostonchilik qo'shiqlari, o'zbek mumtoz, maqom, mahalliy musiqiy uslublariga xos namunalar va ular haqida muxtasar bilim va ma'lumotlarga keng o'rin berildi.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarini kuzatish jarayonida o'zbek mumtoz musiqasi mavzusidagi darslarni tashkil qilish, o'quvchilarga mumtoz musiqa asarlarini tinglash, tahlil qilish, o'rganish va ijro qilishlari bilan birga uning amaliy ijrochilik asoslari haqida zarur bilim va tushunchalar berish o'ziga xos pedagogik yondashuvlar asosida ish tutish lozimligini ko'rsatadi. Aynan, mumtoz musiqaga oid asarlar bilan ish olib borishda zarur ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqilmaganligi, ayrim mavjud tajribalarni ommalashtirilmaganligi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida mumtoz musiqa asarlarini o'quvchilarga o'rgatishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'ziga xos tashkiliy va metodik xususiyatlari bo'yicha fikr-mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik.

Umumta'lim maktablarining 5-7- sinflarida musiqa asarlarini kuylashga nisbatan ularni tinglash, tahlil qilish, qo'shimcha manbalar ustida mustaqil ishlashga o'quvchilarni ko'proq jalb qilishga e'tibor qaratiladi. Bu holat o'quvchi-yoshlarning fiziologik-psixologik o'zgarishlar jarayonini boshdan kechirayotganliklari bilan ham bog'liqdir. O'zbek mumtoz musiqa asarlari esa nisbatan ancha yuqori ijrochilik mahoroti



va ma'lum tajribani talab etadi. Murakkab o'lchov (usul)lar, kuyning rivojlanganligi, keng diapozonga egaligi, kuylashda milliy ashulachilikka xos uslublar (ovoz hosil qilish, ishlatish, nola, qochirim, bezak) ham muayyan ijrochilik malakalarini taqozo etadi. Bu o'rinda musiqa o'qituvchisining tavsiya etilgan namunalarni mohir sozanda, xonandalar, ijodiy jamoalar (radio, televideniye studiyalarda) ijrosidagi yozuvlarni tinglash, shundan so'ng ularni nota yozuvi orqali ijro etilgan variantlarini taqqoslashga o'quvchilar e'tiborini jalb qilinishi samarali usullardan hisoblanadi. Mumtoz ashulalarni o'quvchilarning ovozi va qo'shiq aytish imkoniyatlariga mos, uncha murakkab bo'lmagan, yengil, sho'xchan, raqsob namunalarni o'rgatishning o'zi ham o'qituvchidan katta mahorot va ma'suliyatni, ijodiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchilarni milliy ohang va uslubda ovozni ishlatish ko'nikmalari va ashulachilik ovozi to'la shakllanmaganligi (bolalar ovozi o'ziga xos xususiyatlari) ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mumtoz asarlarni tanlashda sinf jamoasining umumiy ijrochilik saviyasi muhim omillardan biridir. Mumtoz asarlarni tanlashda o'qituvchi dasturga kiritilgan asarlarni o'rganishimiz shart degan fikrda ish tutmasligi, balki, ta'kidlab o'tilgan jihatlarni e'tiborda tutgan holda ish tutishi metodik jihatdan e'tiborda tutgan holda ish tutishi metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Mumtoz asarlarni zamonaviy va kompozitorlik ijodiga mansub asarlar bilan taqqoslash, ularni milliy cholg'u sozlari (tanbur, sato, dutor, g'ijjak, nay, rubob) da yoki fortepiano, akkordion kabi sozlarda ijro etilgandagi tovush sadolanishlari, eshitilishidagi farqli jihatlarni his etish, cholg'u sozlarini milliylik va mumtoz asar xarakteriga muvofiq kelishi yoki aksincha salbiy taassurot uyg'otuvchi xususiyati haqida o'quvchilarni fikrlarini bilish, ularda musiqiy asarlarga baho berish ko'nikmalarini shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Ma'lumki, hamma vaqt jonli ijro o'zining badiiy-emotsional ta'sirchanligi hamda tinglovchilar e'tiborini ko'proq o'ziga jalb qilishi bilan ajralib turadi. Demak, mumtoz asarlarni o'qituvchi tomonidan jonli ijro etilishi ham uning badiiy-estetik ta'sir kuchini oshirishda alohida o'rin tutadi. Bu esa musiqa o'qituvchisidan har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'zining sozandalik va ashulachilik mahorotini doimiy takomillashtirib borishini taqozo etadi. Mukammal ijro va asarning mumtozlik xususiyatlari, ashula matnining g'oyaviy-badiiy mazmuni haqidagi mazmunli suhbat, musiqiy-badiiy tahlil o'quvchilar qalbida ezgu his-tuyg'ularni junbushga keltirib, ularda milliy musiqamizga barqaror qiziqish va muhabbatni shakllanishiga kuchli ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil.
2. Romanova .S.E. Qoraqalpoq milliy musiqiy an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashning pedagogic asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Aftoraferat. Toshkent 2005-yil. 3-bet.
3. Abdukarimova E. Xalq ta'limi jurnali, 2001 yil, 5-son, 22-bet.
4. Hamidov H. O'zbek an'anviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996y.
5. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta'limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.